

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyul holatiga 1881,3 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 11,1 ming kishiga yoki 0,6 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 701,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,3 %), qishloq aholisi soni 1179,9 ming kishini (62,7 %) tashkil etdi.


### E'tibor bering: 2018 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **11,1 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **16,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **6,0 mingta nikoh** va **0,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Buxoro viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-iyun oylarida)




### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 300,9 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 16,0 %ni) va Buxoro shahrida 276,9 ming kishini (14,7 %), aksincha eng kam aholi soni Kogon shahrida 60,3 ming kishi (3,2 %) va Qorovulbozor tuumanida 17,9 ming kishini (1,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Kogon tumanida 2,6%ni, Buxoro tumanida 2,3 %ni, Qorako'l, Peshko` va Jondor tumanlarida 1,8%ni, Romitan va Qorovulbozor tumanlarida 1,7%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Buxoro shahrida 0,3% ni va Kogon shahrida



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 16,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 17,5 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 17,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Buxoro shahrida (14,7 promilledan 16,7 promillega) va Qorako'l tumanida (18,7 promilledan 19,8 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Qorovulbozor (18,6 promilledan 16,3 promillega) va Buxoro (16,5 promilledan 15,2 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Qiz bolalar:**  
7,6  
ming nafar

**O'g'il bolalar:**  
8,6  
ming nafar

### Buxoro viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (yanvar-iyun)

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>16 157</b>	<b>16240</b>	<b>100,5</b>
Buxoro sh.	2 012	2295	114,1
Kogon sh.	454	438	96,5
<i>tumanlar:</i>			
Olot	918	913	99,5
Buxoro	1 283	1215	94,7
Vobkent	1 170	1121	95,8
G'ijduvon	2 898	2808	96,9
Kogon	752	737	98,0
Qorako'l	1 445	1557	107,8
Qorovulbozor	162	144	88,9
Peshku	1 032	1008	97,7
Romitan	1 195	1157	96,8
Jondor	1 311	1341	102,3
Shofirkon	1 525	1506	98,8

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 3,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 4,7 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan birgina Qorovulbozor tumanida (3,0 promilledan 3,8 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Kogon (5,9 promilledan 4,3 promillega) Qorako'l (4,9 promilledan 3,9 promillega), Romitan (4,6 promilledan 3,7 promillega) SHofirkon (4,8 promilledan 3,9 promillega) va Jondor (4,6 promilledan 3,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
2,1 ming  
kishi

**Ayollar:**  
1,8 ming  
kishi

### Buxoro viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (yanvar-iyun)


	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>4351</b>	<b>3861</b>	<b>88,7</b>
Buxoro sh.	706	669	94,8
Kogon sh.	165	156	94,6
<i>tumanlar:</i>			
Olot	222	199	89,6
Buxoro	291	291	100,0
Vobkent	288	294	102,1
G'ijduvon	729	639	87,7
Kogon	212	161	75,9
Qorako'l	381	304	79,8
Qorovulbozor	26	34	130,8
Peshku	242	209	86,4
Romitan	306	254	83,0
Jondor	377	314	83,3
Shofirkon	406	337	83,0

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,8 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,4 %i o'simtalardan, 5,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,5 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,9 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 13,4 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 130 nafarni tashkil etib, ularning 48,5 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 11,5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 15,4 %i tug'ma anomaliyalardan, 0,8 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 11,5 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 1,5 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 10,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



### 2018 yil yanvar-iyun

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 12,3 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,5 ming kishiga (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 11,8 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
12,3 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 6,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,5 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Kogon (122,1 %), Qorako'l (108,3 %), Peshko' (108,1 %), Vobkent (105,8 %) vtumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qorovulbozor (160,0 %), Jondor (143,1 %), Kogon (117,9 %), Olot (111,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-iyun)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>6112</b>	<b>6031</b>	<b>98,7</b>	<b>927</b>	<b>888</b>	<b>95,8</b>
Buxoro sh.	895	889	99,3	286	253	88,5
Kogon sh.	195	189	96,9	50	41	82,0
<i>tumanlar:</i>						
Olot	402	342	85,1	34	38	111,8
Buxoro	456	441	96,7	84	69	82,1
Vobkent	398	421	105,8	46	47	102,2
G'ijduvon	936	888	94,9	123	135	109,8
Kogon	222	271	122,1	39	46	117,9
Qorako'l	553	599	108,3	52	44	84,6
Qorovulbozor	57	44	77,2	5	8	160,0
Peshku	385	416	108,1	43	35	81,4
Romitan	467	425	91,0	57	47	82,5
Jondor	602	590	98,0	51	73	143,1
Shofirkon	544	516	94,9	57	52	91,2

## Demografik holat

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,1 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,2 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 1,1 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun
<b>Ko'chib kelganlar</b>	3,4	3,1
<b>Ko'chib ketganlar</b>	4,5	4,3
<b>Migratsiya saldosi</b>	-1,1	-1,2

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Buxoro shahrida (minus 1,2 ming kishi), G'ijduvon tumanida (minus 0,6 ming kishi) qayd etildi.